TALABALARNING FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA AKSIOLOGIK YONDASHUVNING AHAMIYATI

Djumaqulov Shuxrat Baxodirovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent, Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti

https://doi.org/10.5281/zenodo.16753576

ANNOTATSIYA

Maqolada talabalarning fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishda qadriyatlarning ahamiyati ilmiy asosda tadqiq etilgan. Qadriyat tushunchasining mazmuni, yoshlar tarbiyasida qadriyatlarning o'rni mahalliy va xorijiy olimlar fikrlari asosida o'rganilgan.

KALIT SO'ZLAR

Fuqarolik kompetensiyasi, qadriyat, ma'naviyat, fuqarolik ta'limi, urf-odat, an'ana.

АННОТАЦИЯ

В статье исследуется значение ценностей в формировании гражданской компетентности студентов. Понятие ценностей и их роль в воспитании молодежи раскрыты на основе взглядов отечественных и зарубежных ученых.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Гражданская компетентность, ценности, духовность, гражданское образование, обычаи, традиции.

ABSTRACT

The article investigates the significance of values in the formation of students' civic competence. The concept of values and their role in the education of youth are revealed on the basis of views of domestic and foreign scientists.

KEYWORDS

Civic competence, values, spirituality, civic education, customs, traditions.

Kirish. (Introduction) Ma'lumki, mustaqillik yillarida xalqimiz o'z taqdirining egasi, tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatining sohibiga aylandi. Milliy o'z-o'zini anglashga intilish kuchaydi [1].

Mazkur jarayonda tarbiyaviy qadriyatlarga alohida e'tibor qaratilishi, uning yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishdagi ahamiyatining ochib berilishi o'ta

muhimdir. Yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashda ayniqsa quyidagi tarbiyaviy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi: boy ma’naviyatimiz sarchashmalaridan bahramand bo‘lib borish, jahon madaniyati xazinasiga katta hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy merosini chuqur anglab yetish, yoshlarni o‘z o‘tmishiga, milliy, diniy an’analarga hurmat bilan qarashi, ularni asrab-avaylash ruhida tarbiyalanayotganligi, o‘z millatining o‘zga millatlar oldidagi qadr-qimmatidan, obro‘-e’tiboridan faxrlanish, millat manfaatini himoya qilishdagi mas’uliyatni his etish va kelajakka ishonch.

Tadqiqotning maqsadi. Talabalarning fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishning aksiologik-qadriyatli yondashuvning ahamiyatini tadqiq etishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Aksiologiya fan sifatida dunyoviy ilm-fan rivojining mahsuli sifatida Yevropada vujudga kelgan va falsafaning alohida sohasi sifatida rivojlanib bormoqda [2]. Yangi zamon Yevropa ijtimoiy-falsafiy tafakkuri ilohiy hikmatlar va mo‘jizalarni emas, balki real inson, uning erki, aqli va tafakkuri saltanatini oliy qadriyat deb tushunishga asoslanar edi. Aksiologiya olam mohiyatini diniy va ilmiy asosda bilishdan butunlay farqlanadigan qadriyatli bilishga, ya’ni narsa va hodisalar mohiyatini bilishga ijtimoiylashgan inson manfaatlari nuqtai nazaridan yondashishga asoslanar edi.

Qadriyatshunos-faylasuf Q.Nazarov o‘z tadqiqotlarida to‘g‘ri ta’kidlaganidek, insoniyat taraqqiyotining burilish nuqtalarida, bir ijtimoiy-siyosiy tuzum boshqasi bilan almashinayotgan o‘tish davrlarida faylasuflar oldida muqarrar ravishda “Qadriyat nima?” degan savol paydo bo‘laveradi, insoniyat taraqqiyoti qadriyatlar tizimining almashinuvidan iborat bo‘lib qolaveradi [2].

Qadriyatlar ma’naviy taraqqiyotning sifat jihatidan yangi bosqichidir. Ma’naviyat va qadriyat tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Ma’naviyat qadriyat tushunchasiga nisbatan boy va keng qamrovli tushunchadir. Qadriyat ma’naviyat tarkibiga kiradi va uni rivojlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham qadriyat deganda, kishilarda avvalo ma’naviy qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvur paydo bo‘ladi. Tub o‘zgarishlar va yangilanish davrida ma’naviy qadriyatlar ahamiyatini ortib borishi bir bosqichdan yangi sifat o‘zgarishlariga o‘tish uchun xos obyektiv-tarixiy qonuniyatdir.

Mavjud ilmiy-falsafiy adabiyotlarda qadriyatlar mohiyatini ta’riflashda tushuncha bilan u ifodalaydigan narsa va hodisalarni aynanlashtirish va buning oqibatida qadriyatlarga g‘oyat jo‘n ta’rif berish, qadriyatlarga ehtiyojlar rivojining mahsuli sifatida qarash kabi holatlarni kuzatish mumkin.

Jumladan, “Eng yangi falsafa lug‘ati”da qadriyatga “Absolyutga, shartga, maqsadga yo‘naltirilgan obyekt va hodisalarning insoniy, ijtimoiy va madaniy

mohiyatini aks ettiruvchi atama” deb ta’rif beriladi [3]. U insonning, barcha ijtimoiy obyektlarning “sotsiomadaniy faolligi doirasini belgilab keladi”, madaniy faoliyat natijasi sifatida esa shaxsdan, ayrim hollarda esa tarixiy hodisalardan ayricha idrok etiladi. Shuning uchun qadriyatlar o‘tmish, hozir va kelajakni uyg‘unlashtirish (vaqtda namoyon bo‘lishi), faoliyat natijalarini semiotik ifodalash (makonda namoyon bo‘lishi), narsa va hodisalarni baholashda ularning maqsadga muvofiqlarini ustuvor hisoblash, dunyoni idrok etishda turli darajadagi qadrlash tizimlarini yaratish va fikrlarni asoslash tarzida keladi.

Ushbu yondashishdan ma’lum bo‘ladiki, qadriyatlar inson va subyektlarning sotsiomadaniy faoliyatining ma’lum bir natijasi sifatida rivojlangan bo‘lsada, shaxslar ularni tayyor holda topadilar, aynan shu nuqtai nazardan qadriyatlarning mavjudligi yoki amal qilishi ayrim olgan shaxslar, tarixiy hodisalarga bog‘liq emas, balki ulardan boqiyroqdir. Ta’rif muallifi (V.L.Abushenko) qadriyatlarning vaqt va makonda namoyon bo‘lishi ayrim olingan boyliklardan kengligini to‘g‘ri ta’kidlasada, ulardagi milliy xususiyatlarning yetakchi o‘rin tutishini esga olmaydi. Natijada qadriyatlar milliy, hatto umuminsoniy belgilarsiz qandaydir sof sotsiomadaniy hodisa sifatida talqin etiladi.

Qadriyatlarga axloqiy-etik hodisalar sifatida yondashish u yoki bu darajada barcha adabiyotlarda mavjud. Biroq ayrim mualliflar qadriyatlardagi ushbu belgilarni mutlaqlashtirishga moyildirlar. Masalan, A.I.Kravchenko qadriyatlarga quyidagicha ta’rif beradi: “Qadriyatlar, – deb yozadi u, – ko‘pchilik kishilar tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanadigan ezgulik, adolat, vatanparvarlik, sevgi, do‘stlik kabi hodisalar haqidagi tasavvurlardir... Qadriyatlar shubha ostiga olinmaydi, ular barcha kishilar uchun etalon, ideal bo‘lib xizmat qiladi” [4].

Birinchidan, olimning qadriyatlarni, hatto ular barcha kishilar uchun “etalon, ideal bo‘lib xizmat qilsa”da, tasavvurlar tarzida talqin qilishi kishida e’tiroz uyg‘otadi. Agar qadriyatlar subyektiv tasavvurlardan iborat bo‘lsa, noosfera yoki moddiy madaniyat sohasida yaratilgan boyliklar (Eyfel minorasi, Tojmahal maqbarasi, Vizantiya arxitekturasi, Samarqanddagi madrasayu minoralar va h.k.), axloqiy, huquqiy, diniy qarashlar, urf-odatlar qadriyatlarga kirmaydimi? degan haqli savol tug‘iladi.

Ikkinchidan, subyektiv tasavvurlarning barcha kishilar uchun bir xil andoza, ideal, etalonda bo‘lishini faqat xayoldagina tasavvur qilish mumkin. Hatto bir onadan ketma-ket tug‘ilgan va bir sharoitda o‘sgan, yagona oilaviy va tarbiyaviy muhitda rivojlangan aka-ukalar ham yon-atrof, olam, shu jumladan qadriyatlarni ham bir xil tasavvur qilmaydilar. Demak, qadriyatlar tasavvurlargina emas, ular inson va tarixiy subyektlarning yon-atrof, olamni idrok etishi, o‘zlashtirishi va

o‘zgartirishi jarayonida ijtimoiy meyor sifatida yaratgan moddiy hamda ma’naviy boyliklarining ijtimoiy muhitda tan olingan majmuasidir.

“Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at”da qadriyatlar ijtimoiy-tarixiy va madaniy kategoriya sifatida e’tirof etilib, “inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalardir” [5] tarzida izoh berilgan. Biroq bu ta’rif ham savollar uyg‘otadi. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli, kerakli bo‘lmagan narsa bormi o‘zi? Hatto zaharli ilon ham odam uchun ahamiyatli ekanini isbotlab o‘tirish kerakmi? Demak, olamda mavjud jamiki narsa, mavjudot inson va insoniyat uchun ahamiyatli, keraklidir. Demak, bu o‘rinda qadriyat tushunchasi haddan tashqari keng talqin etilgan. Bundan tashqari, lug‘atda ikki jumla o‘tgach, qadriyatlar “moddiy va ma’naviy boyliklar olamining gultoji, sarasi” [5], deb ta’riflanadi. Unday bo‘lsa, barcha moddiy va ma’naviy boyliklar emas, balki ularning “sarasi, gultoji” qadriyatlarga kiradi, degan xulosaga kelamiz. O‘z-o‘zidan ma’lum bo‘ladiki, inson va insoniyat uchun ahamiyatli barcha narsalar emas, balki moddiy va ma’naviy boyliklarning gultoji, sarasi – qadriyatlardir. Ushbu fikrlarda ichki ziddiyatlar borligini ko‘rmaslik mumkin emas.

Qadriyatlar mohiyatini falsafiy-aksiologik jihatdan to‘g‘ri tushunishda Q.Nazarovning mulohazalari e’tiborga loyiqdir: “Qadriyat biror-bir tarzda, shaklda zohir bo‘ladigan, subyekt uchun muayyan ta’sirini namoyon qiladigan voqelikning turli-tuman shakllari, ko‘rinishlari, narsalar, hodisalar, jarayonlar, munosabatlar, turli sifatlar, xususiyat, axloq va ma’naviylik mezonlari hamda boshqalarning subyekt uchun ijtimoiy ahamiyatli va qadrini ifodalaydigan umumiy aksiologik kategoriyadir” [2].

“Qadriyat” g‘oyat murakkab, ko‘pqirrali va keng qamrovli aksiologik kategoriyadir. “Qadriyat” muttasil ravishda boyib boradigan tushuncha bo‘lib, unga beriladigan ilmiy-falsafiy ta’rif hamisha davrning ma’naviy-intellektual salohiyati, ilmiy izlanishlarning bugungi darajasi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Qadriyat tushunchasi voqea va hodisalarning obyektiv borlig‘i, uning shaxs, guruh va jamiyat uchun ahamiyatini o‘zida to‘la va yorqin aks ettiradi. Narsa va hodisalar takomillashib borishi, ularning shaxs, guruh va jamiyat uchun ahamiyati ortib borishi bilan qadriyat tushunchasining mazmuni ham chuqurlashib va kengayib boraveradi. Bugungi kunda “qadriyatli yo‘nalganlik” atamasi ham psixologik-pedagogik adabiyotlarda keng qo‘llanilmoqda.

Shaxsning “qadriyatga yo‘nalganligi” atamasi XX asrning 20 yillarida sotsiologiya fanida U.Tomas va F.Znanetskiylar tomonidan kiritilgan bo‘lib, ularning fikricha ijtimoiy ustanovka – individning ijtimoiy dunyodagi real va mavjud faolligini aniqlab beruvchi individual anglash jarayonidir [6]. Boshqacha so‘z bilan aytganda, ijtimoiy ustanovka individ, guruh, yaxlitlikda jamiyat xulq-

atvorini boshqarishni ta’minlovchi yadro vazifasini bajaradi. Ijtimoiy ustanovkaning paydo bo‘lishidan avval individ tomonidan ehtiyoj va shart-sharoitlarning anglanishi sodir bo‘ladi. Sotsiumning ta’siri jamiyat tomonidan ma’lum axborotlarga ega bo‘lish asosida ehtiyojlarning qondirilishiga erishish bilan belgilanadi. Shunday qilib, qadriyatga yo‘nalganlik individning ongida shakllanadi, qaror topadi va o‘zgarib turadi [6].

T.Parsonsning “Ijtimoiy harakatlarning tuzilishi haqida” deb nomlangan asarida qadriyat va qadriyatga yo‘nalganlik tushunchalari o‘rtasidagi aloqadorlik ajratib ko‘rsatilgan. Ya’ni, sotsium madaniyatida etalonlarga intilishning namoyon bo‘lishi asosida jamiyatning funksional ehtiyojlari yuzaga chiqadi [4].

Ta’lim falsafasi nuqtai nazaridan “qadriyatli yondashuv” atamasi ham alohida o‘rni tutadi. Jumladan, Faylasuf L.A.Mikeshina ta’limda qadriyatli yondashuvning operatsion modelini nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqqan [8].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). B.F.Lomov konsepsiyasi bilimlarning qadriyatli mazmunini amalga oshirishning psixologik mexanizmlarini asoslash uchun juda muhimdir. Uning yordamida bilimlarni “obyektiv qiziqarli” sohadan shaxs uchun yo‘naltirish, shuningdek, ta’lim jarayoni ishtirokchilarini subyekt sifatida namoyon bo‘lishiga erishishning taraqqiyot yo‘nalishini belgilash imkoniyati yaratiladi. Bunday o‘tish operatsiyasini amalga oshirish jarayonida shaxs “o‘zi uchun muhim hisoblangan boshqalar” bilan muloqot orqali umumiy qadriyatlarni “o‘zlashtiradi”, natijada bu qadriyatlar uning ehtiyojiga, motivatsion tuzilishining bir qismiga aylanadi [9].

Ta’lim mazmuni nazariyasining rivojlanishi bilan bog‘liqlikda didaktikada bugungi kunda aniq nuqtai nazarlar qaror topgan. Jumladan, ta’lim mazmunining yaxlitligi nazariyasiga ko‘ra, u to‘rt komponentni o‘zida ifoda etadi: tabiat, jamiyat, texnika, inson, faoliyat usullari haqidagi bilimlar to‘plami, ma’lum faoliyat usullarini joriy etish tajribasi, oldindan algoritm qilinmagan harakatlar bilan ifodalangan ijodiy faoliyat tajribasi, dunyoga, odamlarga, o‘z-o‘ziga bo‘lgan hissiy-qadriyatli munosabat tajribasi. Mazkur tarkibiy asoslar bir-birini mustahkam taqozo etgan holda, talabalarda fuqarolik kompetensiyasini shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuv bilan aloqadorlikda rivojlantirish imkonini beradi. Albatta, ta’lim mazmuni tarkibiy qismlaridan birining mavjud bo‘lmasligi yaxlit o‘quv jarayonining ta’minlanmasligiga olib kelib, xuddi shunday kutiladigan natijalarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Fuqarolik ta’limi mazmunida aksiologik komponentni amalga oshirish zarurati, avvalo, ijtimoiy-siyosiy voqealarni o‘rganishga qadriyatli yondashuv bilan belgilanadi. Dalillar, hodisalar, jarayonlarni o‘rganish, tahlil qilish ilmiy-kognitiv (mantiqiy) va qadriyatga

yo‘naltirilgan usullarni nazarda tutadi. Birinchisi, obyektlarning ishlash qonunlarini kashf etish, turli hodisalarni umumiy tushunchalar ostida jamlashga qaratilgan. Dalillar, hodisalar, jarayonlarni baholash qadriyatlar tizimi bilan bog‘liq bo‘lib, bu ilmiy bilimlarni talqin qilishda o‘z o‘rniga egadir.

Zamonaviy sharoitda ta’lim paradigmalari transformatsiyasi natijasida o‘qitish jarayoni nafaqat jamiyat va davlatning ijtimoiy buyurtmasi, balki shaxsning global ta’lim olish imkoniyatlariga ham yo‘naltirilishi g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishda aksiologik yondashuv quyidagi vazifalarni amalga oshirishga yordam beradi:

– fuqarolik qadriyatlarini o‘zlashtirishda obyektivlik va tarixiylik tamoyillariga ustuvorlik berish;

– shaxsni fuqaro sifatida jamiyatdagi o‘z o‘rnini aniq belgilay olishi uchun voqelikka maqsadli yo‘naltirish;

– insoniyat tarixi va jahon tamaddunidagi ko‘p millatli davlat sifatida O‘zbekistonning o‘rni haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish;

– fuqarolik qadriyatlar tizimining ijtimoiy voqelik bilan bevosita shartlanganligini hisobga olish;

– jamiyat hayotida faol ishtirok etish, milliy biqiqlik, shovinizm, ekstremizm singari vayronkor g‘oyalarga salbiy munosabatni shakllantirish.

Talabalarning aksiologik faoliyati fuqarolik qadriyatlarini ichki anglash, yangi O‘zbekistonni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishni taqozo etadi.

Fuqarolik ta’limi mazmunining qadriyatli komponentini amalga oshirish, agar o‘quv materiallari fanlararo aloqadorlikning semantik dominantlariga muvofiq amalga oshirilsa, samarali bo‘ladi. Semantik dominantlar fuqarolik ta’limi mazmunining asosiy g‘oyalarini ifodalaydi, o‘quv materialining mazmunini aniqlaydi, o‘quv predmetining zaruriyatini ochib berishga xizmat qiladi. Asosiy semantik yetakchi birliklarga quyidagilarni kiritish mumkin: “Jamiyatdagi o‘zgarishlarning sabablari va yangicha yondashuvlar”, “Hayotdagi o‘zgarishlar uchun tashabbus ko‘rsatish yo‘llari”, “Zamon va insonlar”, “Jamiyat va men” va h.k.

Fuqarolik ta’limi mazmunining qadriyatli komponentini tuzish va amalga oshirishda talabalarning o‘quv-bilish tashkil etishning uchta bosqichi hisobga olinishi lozim: bilimlarni taqdim etish va ko‘nikmalarni egallash, bilim va ko‘nikmalarni namoyish etish, bilim va ko‘nikmalardan yangi vaziyatda foydalanishni aks ettirish va baholash. Bosqichlar o‘rtasida aniq chegaralar yo‘q, ular shartli, ularning har birida bilimlarni boyitish, ko‘nikmalarni mustahkamlash va olingan ma’lumotlarning ishlash mexanizmi mavjud.

Xulosa va takliflar (Conclusion Recommendations). Aksiologik yondashuvga asoslangan o‘qitish jarayonini pedagogik modellashtirish fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishning zaruriy sharti sifatida fuqarolik ta’limi mazmunini yoritib berishi va shunga muvofiq ravishda uni amalga oshirilishini ta’minlashi kerak. Aynan aksiologik komponent Davlat ta’lim standarti va dasturlarining tarkibiy asoslarini alohida-alohida o‘rganish imkoniyatini taqdim etib, inson hayoti mazmuni, davlat va jamiyat uyg‘unligining tub mohiyati, turli ijtimoiy-siyosiy voqeliklar, bilish jarayonlarining ahamiyatini keng ravishda ochib beradi.

Shuni alohida qayd etib o‘tish lozimki, aksiologik yondashuv asosida fuqarolik ta’limi mazmunini takomillashtirishning barcha elementlari mutlaq o‘zaro aloqadorligini ta’lim-tarbiya jarayonining innovatsion yo‘nalganligi, globallashuvi va xalqarolashuvi kabi qo‘shimcha omillarni hisobga olish orqali ta’minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mavrulov A. Ma’naviy barkamol inson tarbiyasi. O’zbekiston. – T.: 2008. 80 б.
2. Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. – Т.: 2004. 188 б.
3. Ценность. // Новейший философский словарь. – Мн.: Изд. В.М.Скакун, 1998. 896 с.
4. Кравченко А.И. Социология. «Логос» Екатеринбург, Деловая книга. – М.: 1999. 368 с.
5. Мустақиллик: изоҳли илмий-оммабоп луғат. Шарқ. – Т.: 1998. 528 б.
6. Томас У., Знанецкий Ф. Методологические заметки // Америк. соц. мысль. Изд-во МГУ. – М.:1994. 344 с.
7. Кравченко А.И. Социология. «Логос» Екатеринбург, Деловая книга. – М.: 1999. 368 с.
8. Микешина Л. А. Эпистемология и когнитивная наука: базовые категории и принципы взаимодействия / Л. А. Микешина // Когнитивный подход: научная монография / отв. ред. В.А.Лекторский. Канон + РООН «Реабилитация». – М.:2008. 464 с.
9. Ломов Б.Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии. Педагогика. – М.: 1991. 226 с.